

QASHQADARYO VILOYATI SHAROITIDAGI MAYDA SHOXLI HAYVONLARDA YOD TANQISLIGI PATOLOGIYASI

Bakirov B.
Professor

Boboyev O. R.
Veterinariya Fanlari Bo'Yich Falsafa Doktori (PhD),

Fayzullayev Sh.
Talaba Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya

Qashqadaryo viloyati sharoitida fermer va aholi qaromog'ida pavarishlanayotgan mayda shoxli hayvonlar orasida endemik bo'qoqning tarqalishi, iqtisodiy zarari, asosiy belgilari va ushbu tanqislik paytida faollashtirilgan yodlangan tuzning qo'ylar organizmiga ta'siri o'rganilgan.

Аннотация

Изучены распространени, экономический ущерб, клинические признаки а также действие активированной на 20% поваренной соли на организм каракулских овец в условиях Кашкадаринской области.

Annotation

The spread of economic damage, clinical signs, as well as the effect of 20% activated table salt on the body of Karakul sheep in the conditions of Kashkadarya region were studied.

Kalit so'zlar. Faollashtirilgan yod, tiroidal status, T₄, T₃, TTG.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2019 yil 18 martdagi «Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4243-son va 2019 yil 28 martdagi «O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4254-son qarorlari. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-121-sonli va 2022 yil 31 martdagi sonli «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish» to'g'risidagi PQ №187 qarorlarida chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarishda mayda shoxli hayvonlarda yod tanqisligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyot manbalarining ko'rsatishicha yod hayvonlar organizmidagi barcha jarayonlarda, xususan oksidlanish-qaytarilish, metabolizm, hujayra va to'qimalar differensiyasi, gormonal-reproduktiv va immunitet jarayonlarida ishtirok etadi. Oziqa tarkibidagi yod ichak orqali so'riladi, to'qima suyuqligidan o'tib tiroid almashinuvida ishtirok

etadi. Tanadagi yodning 60% -i qalqonsimon bezda, qolgan 40% -i boshqa a'zolar to'qimalarida saqlanadi. Peroksidaza fermenti ta'sirida hosil bo'lgan molekulyar yod yuqori reaktivlikka ega bo'lib, u tiroglobulin (tirozin molekulasi) ga aylanadi va follikulyar kolloid tarkibiga o'tadi.

Keyingi bosqichda tirozin qalqonsimon bez gormonlari, xususan, triyodtironin (T_3), tetrayodtiroksin yoki tiroksin (T_4)ga aylanadi. Erkin T_3 va T_4 molekulalari tashuvchi oqsillar bilan birikib, tireoglobulinlarga aylanadi va to'qimalarga yetib boradi. To'qimalardagi gormonlar tashuvchi oqsildan ajralib chiqadi va metabolik jarayonda faol ishtirok etadi. Redoks jarayoni natijasida organizm tarkibidagi yod tanadan najas, safro siydik, sut va tupruk orqali chiqib ketadi [1, 2].

Qo'ylar tanasidagi umumiy yod miqdori 0,3-0,7 mg/kgni tashkil etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, uning asosiy qismi qalqonsimon bezda saqlanadi.

Keyingi dunyoviy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha yod bilan kasalliklarga chidamlilik o'rtasida bog'liqlik mavjud. Yod tanqisligi paytida endemik bo'qoq rivojlanadi, va natijada metabolik jarayonlar faolligi va natijada hayvon go'sht va jun mahsuldorligi pasayadi, urug'lanish va otalanish darajalari pasayadi, past xayotchanlikdagi bola tug'iladi, ayrim paytlarda esa, qalqonsimon bezlari kattalashgan bola tug'ilad. Bunday yosh hayvonlarning o'sishi va rivojlanishdan orqada qoladi. Oqsil, uglevod, lipid va mineral metabolizmining jiddiy buzilishi ovqat hazmlanishining buzilishiga, go'shtning kimyoviy tarkibining pasayishiga olib keladi [1, 2, 3].

Yod tanqisligi, surunkali kasallik sifatida juda sekinlik bilan rivojlanadi va ko'pincha qalqonsimon bezning kattalashishiga qadar organizmda turli a'zo va tizimlarning chuqur buzilishlari kuzatiladi, bo'qoq, miksedema va boshqalar rivojlanadi.

Bo'qoq paytida qalqonsimon bez gormoni hisoblangan tiroksin (T_4) hamda adinogipofiz gormoni hisoblangan tirotrop gormon (TTG) miqdorlari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi. Bunday bog'liqlik, muallifning izohlashicha, gipotalamus- gipofiz-tireoid tizimi me'yorida faoliyat ko'rsatayotgan paytda tireoid gormonlari miqdorining pasayishi TTG konsentratsiyasining oshishiga olib keladi. Tireoid gormonlari miqdorlari me'yoridan ortiqcha bo'lgan paytlarda esa aksincha TTG sekresiyasining susayishi ro'y beradi

Yod yetishmasligi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va organizmdagi yod metabolizmini tartibga solishni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri organik yoddan foydalanish hisoblanadi [3, 4, 5].

Tadqiqotning maqsadi. Qashqadaryo viloyati sharoitidagi mayda shoxli hayvonlarda yod tanqisligi oqibatlari va unga qarshi profilaktik vositalar ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari.

- Qashqadaryo viloyati fermer xo'jaliklari sharoitidagi mayda shoxli hayvonlarda yod tanqisligining tarqalishi va iqtisodiy zararini aniqlash;
- 20% ga faallashtirilgan yodlangan tuzning sovliqlar organizmiga ta'sirini o'rganish.

Tekshirish ob'yekti va usullari. Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining "Ochil bobo chorvasi" fermer xo'jaligi sharoitida tajribalar 2 guruh sovliqlarda olib borildi.

Nazorat guruhidagi sovliqlar (10 bosh) xo‘jalik ratsionida saqlandi. Tajriba guruhida sovliqlar unga qo‘shimcha ravishda 20% ga faollashtirilgan yodlangan tuzdan kuniga 10 g miqdorida omixta yem bilan birgalikda qabul qildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarimiz natijasida, tajriba guruhidagi mayda shoxli hayvonlar oziqa sifatida yodlangan tuzni oziqaga qo‘shilishi ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi; xususan, go‘sht unumdorligi oshdi (tajriba oxiriga kelib, tajriba guruhidagi hayvonlarning tirik vazni nazorat guruhi bilan taqqoslaganda ortdi).

Endemik bo‘qoqning oldini olishga qaratilgan guruhli profilaktik vositalarining turi, miqdori va berilish tartibiga bog‘liq holda yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan ko‘rsatkichlarning tajriba davomida o‘ziga xos o‘zgarishlarga uchrashi kuzatildi. Xususan, moddalar almashinuvi jarayonining mutadillashtirish qondagi anorganik fosfor va umumiy kalsiy miqdorining mos ravishda, 24,6% va 14,7% ga glyukozaning 18,0-20,4% ga oshishi), qalqonsimon bez faoliyatining yaxshilanishi T_3 va T_4 mos ravishda, 62,4% va 41,9% ga oshish), qayd etildi.

Xulosalar

1. Qashqadaryo vloyati Qamashi tumanining “Ochil bobo chorvasi” fermer xo‘jaligi sharoitidagi sovliqlarda yod tanqisligi. 40-60 % hayvonda jun va teri buzilishlari, mushak tolalarining noziklashishi va o‘sishtan qolish, terida qattiq burmalarning paydo bo‘lishi, qalqonsimon bezning novizual (morfometrik) kattalashishi kabi belgilari bilan namoyon bo‘ladi va ushbu patologiya oqibatida kelayotgan iqtisodiy zarar har bosh sovliq hisobiga yiliga o‘rtacha 1000-2000 so‘mni tashkil etadi.
2. Oziqaga qo‘shimcha ravishda doimiy tarzda 10 g dan 20% faollashtirilgan yodlangan tuzni berish sovliqlarda yod tanqisligi asoratlarini bartaraf etadi va iqtisodiy samaradorlik har bosh sovliq hisobiga o‘rtacha bir yilda 351000 so‘mni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bakirov B., Daminov A.S., Ro‘ziqulov N.B. va b.lar. Hayvonlar kasalliklari. Ma’lumotnoma. Samarqand 2019.
2. Bakirov B. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand. 2015.
3. Bakirov B. Hayvonlarda modda almashinuvinin buzilishlari va jigar kasalliklari. Monografi 2016.
4. Eshburiyev B.M. Bug‘oz sigirlarning endemik mikroelementozlari, ularning oqibatlari va profilaktika chora-tadbirlari. Veterinariya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2016.
5. Denisenko V.N., Abramov P.N. Endemicheskiy zob u telyat v usloviyax Moskovskoy oblasti. Veterinariya. 2005.